7 [https://www.google.com/search?q=\(%E2%80%99C+How+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+Companies%E2%80%99D&rlz=1C1IXYC_ruUZ978UJ978&oq=\(%E2%80%99C+How+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+Companies%E2%80%99D&gs_lcrp=EgZjaHJvbwUyBggAEEUYOTIICAEQABgWGB4yCAgCEAAYFhge0gEJMTI5NmowajE1qAIA-sAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=(%E2%80%99C+How+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+Companies%E2%80%99D&rlz=1C1IXYC_ruUZ978UJ978&oq=(%E2%80%99C+How+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+Companies%E2%80%99D&gs_lcrp=EgZjaHJvbwUyBggAEEUYOTIICAEQABgWGB4yCAgCEAAYFhge0gEJMTI5NmowajE1qAIA-sAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8)

8 <https://www.nber.org/>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotga ta’sirini o’rganish va uni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlarini aniqlash” mavzusidagi tadqiqot ishimizda, mavzuni har tomonlama tushunish uchun turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalandik. Monografik tahlildan foydalanib ilmiy maqolalar va adabiyotlarni tahlil qilish orqali elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotga ta’sirini o’rganish va uni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlarini aniqlash ustida olib borilayotgan zamonamiz olimlarining tadqiqot ishlari natijalari bilan tanishdik. Statistik tahlildan elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalariga ta’sir etuvchi omillar haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlashda foydalandik. Qiyosiy tahlil orqali turli xil mintaqalardagi elektron tijorat modellarini taqqoslab, ulardagi o’xshashliklar, farqlar va kamchiliklarini aniqlash uchun mavjud elektron tijorat modellarini tahlil qildik. Ushbu usullarni birlashtirish elektron tijoratning hozirgi holatini ham, rivojlanish istiqbollarini ham aks ettiruvchi yanada to’liqroq va chuqurroq tadqiqot o’tkazishga imkon yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron tijorat O’zbekistondagi mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko’rsatib, yangi ish o’rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, ayniqsa, logistika, IT, marketing va mijozlarga xizmat ko’rsatish sohalarida yangi ish o’rinlarining yaratilishiga keng imkoniyatlar ochadi⁹. Shu bilan birga, elektron tijorat biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Ammo elektron tijorat bozorining yetarli darajada tartibga solinmaganligi sababli noqonuniy bandlik sektorining o’sish xavfini ham keltirib chiqaradi. Elektron tijorat tadbirkorlar va iste’molchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni o’zgartirmoqda, bu esa muayyan ish turlariga bo’lgan talabning o’zgarishiga olib kelishi mumkin¹⁰. Umuman olganda, O’zbekistonda elektron tijorat bandlikka ijobiy ta’sir ko’rsatadi, lekin noqonuniy bandlik va ish o’rinlarining beqarorligi kabi salbiy oqibatlarining oldini olish uchun xodimlarning huquqlarini tartibga solish va iste’molchilar huquqlarini ximoya qilishga e’tibor qaratishni talab qiladi.

O’zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish va fiskal siyosat masalalarida katta ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonunning yangi tahriri (2022-yil 29-sentabrdagi O’RQ-792-son) 2022-yil 31-dekabrda kuchga kirdi¹¹. Ushbu qonun elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va elektron tijorat subyektlari uchun asosiy tushunchalar hamda qoidalarni belgilaydi. O’zbekistonning yangi tahrirdagi Soliq Kodeksiga ko’ra, elektron tijorat bilan shug’ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlari uchun soliq stavkalari minimal qilib belgilangan. Masalan, daromad solig’i odatdagi 15 foiz o’rniga 7,5 foiz stavkada (337-modda), yagona soliq to’lovi esa 4 foiz emas (467-modda)¹² 2 foiz stavkada to’lanadi. Elektron tijorat sohasidagi soliq-byudjet siyosati imtiyozli soliq stavkalarini taqdim etish va tadbirkorlik tartib-taomillarini soddalashtirish orqali iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirishni rag’batlantirishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar O’zbekistonda elektron tijoratni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, bu onlayn savdo hajmini oshirish va mamlakatning raqamli iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Elektron tijoratdagi texnologiya tendensiyalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda, bu esa o’z navbatida elektron tijoratni yanada jadal yoyilishiga xizmat qilmoqda. Elektron tijorat tobora mobil qurilmalar orqali foydalanish uchun osonlashib, chakana sotuvchilar mobil ilovalar orqali savdoga o’tmoqda, bu esa aholi o’rtasida mobil qurilmalar sonining ortib borayotgani bilan bog’liqdir. Globallashuv jarayoni kengayotganligi sabab iste’molchilar mahalliy do’kon yoki hatto o’z mamlakatida mahsulot tanlash bilan cheklanmay, balki butun dunyodab xarid qilish imkoniyatiga ega bo’lmoqda. Nielsenning global tadqiqotida onlayn respondentlarning qariyb 57% xorijiy onlayn-do’konlardan onlayn xarid qilishlarini aytishgan¹³. Innovatsiyalarning joriy etilishi ham tobora kengaymoqda. Ammo mobil texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat yoki mintaqaga qarab farq qiladi. Misol uchun, Hindistonda ba’zi onlayn-do’konlar butunlay mobil ilova orqali mahsulot sotishga o’tgan¹⁴.

Jahonda global elektron tijorat o’sishda davom etmoqda. Global elektron tijorat savdosi 2022-yilda 3,56 trillion AQSH dollariga yetdi, bu 2021-yilda qayd etilgan 2,91 trillion AQSH dollaridan 22,3% ko’pdir¹⁵. Bu sezilarli o’sish bo’lib, onlayn xaridlarning tobora ommalashib borayotganini va global raqamli iqtisodiyotning kengayishining yorqin isbotidir.

Ushbu tendensiyalar axborot texnologiyalari va infratuzilmaning takomillashuvi natijasida elektron tijorat o’sishda davom etayotganligidan dalolat beradi, bu esa internetda ko’proq iste’molchilarni jalb qiladi.

9 <https://infocom.uz/wp-content/uploads/2023/06/B5-1.pdf>

10 <https://infocom.uz/wp-content/uploads/2023/06/B5-1.pdf>

11 <https://lex.uz/ru/docs/6213428>

12 https://www.norma.uz/nashi_obzori/e-commerce_cho_eto_takoe_i_kak_tuda_popast

13 <https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire->

14 <https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire->

15 <https://marketsplash.com/ru/statistika-elektronnoi-kommerstsiyi/>



Sun'iy intellekt (AI) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalarning ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi elektron tijorat rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida takliflarni shaxsiylashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. AI foydalanuvchilar uchun shaxsiy tavsiyalar yaratish, ularning xarid qilish tajribasini yaxshilash va xarid qilish ehtimolini oshirish imkonini beradi. AI chatbotlari mijozlarga 24/7 kun davomida yordam beradi, bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish va qoniqish darajasini oshiradi. AI korxonalarga ongli qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun xarid qilish harakati haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib beradi, bu esa korxonalarga tezroq va aniqroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi¹⁶. Bugungi kunda, blokcheyn tenologiyasi ham tobora rivojlanib bormoqda. Ushbu texnologiya barcha tranzaksiyalarning markazlashtirilmagan va o'zgaras tarixini ta'minlash orqali tranzaksiyalar xavfsizligini yanada oshiradi¹. Shu bilan birga, ta'minot zanjirini boshqarishda blokcheyn ta'minot zanjiri boshqaruvini optimallashtiradi, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi¹⁷. Ushbu texnologiyalar yanada samarali, xavfsiz va qulay elektron tijorat platformalarini yaratishga yordam beradi, natijada foydalanuvchi tajribasi oshib, biznes imkoniyatlari kengayadi.

Elektron tijorat ta'sirida iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar sezilarli va ko'p qirrali bo'ldi. Iste'molchilar tobora ko'proq onlayn xarid qilmoqdalar, bu esa elektron tijoratning o'sishiga olib keladi¹⁸. COVID-19 pandemiyasi davrida jamoat joylarida harakatlanishga qo'yilgan cheklovlar iste'molchilarning an'anaviy xarid qilish odatlarini o'zgartirib, onlayn xaridlarga o'tishini tezlashtirdi¹⁹. Do'konlarning assortimentidagi o'zgarishlar va mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat o'rtacha mijozlarning xarid qobiliyatida o'z aksini topadi. Iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi bu o'zgarishlar biznesning strategiyalari va taktikalariga ta'sir ko'rsatmoqda, chunki ular yangi sharoitlarga va mijozlarning xohishlariga moslashishga intiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xaridorlarning onlayn xarid qilish qarorlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Reklama, qadoqlash, displeylar va veb-saytlar xarid qilish qarorlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular o'zlarining jozibasi bilan xaridorlarni tovar va xizmatlarni sotib olishga undaydi. Shu bilan birga, qaror qabul qilish jarayonida xaridorlarga oilasi, do'stlari va qo'shnilari ham katta ta'sir qiladi, chunki ularning fikri va tavsiyalari potensial xaridorlar tomonidan qadrlanadi. Lekin eng yaxshi targ'ibotchi, bu mahsulotni iste'mol qilgandan keyin u haqdagi ijobiy fikr uni yana sotib olishga undashidir. Iste'molchilar xarid bilan bog'liq xavflarni, shu jumladan mahsulotning qaytarilishi va kafolatlar ehtimolini ham hisobga oladilar. Mahsulotning narx-navo nisbati, ayniqsa, kuchli raqobat muhitida muhim omil hisoblanadi. Ayni paytda, tez yetkazib berish yoki zudlik bilan xarid qilish zarurati do'kon yoki mahsulotni tanlashga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillar o'zaro ta'sir qiladi va onlayn chakana sotuvchilar o'zlarining marketing strategiyalari samaradorligini oshirish uchun ularni hisobga olishlari kerak bo'lgan murakkab qaror qabul qilish jarayonini tashkil qiladi.

Bugungi kunda, elektron tijorat faoliyatida eng ko'p uchraydigan holatlardan biri bu kiberhujumlardir. Mana shu omil ko'plab potensial xaridorlarni elektron tijatdan foydalanishdan qaytaradi. Ushbu muammoga jiddiy e'tibor berish juda muhimdir, bu butun tarmoqqa katta ta'sir etadi. Onlayn tranzaksiyalar xavfsizligini va elektron tijorat ishtirokchisining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni ta'minlash uchun avvalo, to'lov tizimini PCI DSS xalqaro to'lov kartasi ma'lumotlari xavfsizligi standartlariga muvofiqligini ta'minlash zarur²⁰. Shu bilan birga, internet tarmog'i orqali ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun SSL/TLS kabi uzatishni shifrlash yordamida mijoz ma'lumotlarini himoya qilish kerak²¹. Albatta, foydalanuvchi identifikatorlarini tekshirish va maxfiy ma'lumotlarga kirishni cheklash uchun ko'p faktorli autentifikatsiya va avtorizatsiya tizimlarini joriy qilish talab etiladi. Umumiy kiberxavfsizlik qoidalarini unutmaslik va xavfsizlik zaifliklarining oldini olish uchun barcha dasturlarni, jumladan CMS, pluginlar va skriptlarni muntazam yangilab turish kerak²². Kiberhujum yoki tizim xatosi yuz berganda ma'lumotlarni yo'qotmasdan tiklash uchun ma'lumotlarning muntazam zaxira nusxalarini yaratish zarur. Bunday chora-tadbirlar tadbirkorlarga o'z biznesi va mijozlarini kibertahdidlardan himoya qilish hamda elektron tijorat operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Kiber xavfsizlik darajasining yuqori bo'lishi mijozlarda ishonchni oshirib, ushbu saytdan xarid qilishga undaydi.

Elektron tijorat sohasida doimiy ravishda yangi tahdidlar paydo bo'lib bormoqda, ular biznesdan e'tibor va moslashishni talab qiladi. Bugungi kundagi, ilg'or sun'iy intellekt usullaridan fishing hujumlari va firibgarliklarni yaratish uchun foydalanish ommalashib bormoqda²³. Shu bilan birga, buzg'unchilar zararli dasturlarni kiritish yoki maxfiy ma'lumotlarga kirish uchun ta'minot zanjiridagi zaifliklarni nishonga olib, u yerga o'zalarining buzg'unchi dasturlarini joylashni va undan kiber hujum uchun foydalanishni tez-tez qo'llayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunda ular zararli kodlar va boshqa zararli harakatlarni tarqatish uchun ushbu kompaniyaning tarmoq

16 <https://www.actualidadecommerce.com/ru>

17 <https://www.cryptopolitan.com/ru>

18 <https://adindex.ru/adindex-market/7/e-commerce/153781.phtml>

19 <https://www.comnews.ru/content/218162/2022-01-10/2022-w02/e-commerce-pokazala-kolossalnyy-rost>


20 <https://experience.dropbox.com/ru-ru/resources/protecting-personal-info-online>

21 <https://media.foxford.ru/articles/kak-zashchitit-lichnye-dannye-v-seti>

22 <https://www.eset.com/ua-ru/support/information/entsiklopediya-ugroz/zashchita-personalnykh-dannykh/>

23 <https://e-pepper.ru/news/globalnyy-rynok-elektronnoy-kommertsii-8-trendov-v-2023-godu.html>

va server resurslaridan foydalanishadi. Mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlab, ularni sotishi yoki o'zlarining moliyaviy buzg'unchiligida vosita sifatida foydalanishlari mumkin. Lekin, xavfsizlik bo'yicha ham rivojlanish to'xtab qolgani yo'q. Elektron tijoratda kiberxavfsizlik tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha doimiy ravishda rivojlanib, yangi tahdidlarga moslashib bormoqda. Tahdidlarni tezda aniqlay oladigan va ularga javob beradigan tizimlar ommalashib, ko'plab korxonalar tomonidan joriy etilmoqda. Hozirgi kunda, resurslarga xavfsiz kirishni ta'minlash uchun tarmoq va xavfsizlik xususiyatlarini birlashtirgan Secure Access Service Edge (SASE)²⁴ dasturlari deyarli barcha to'lov tizimlari tomonidan joriy etilgan²⁵. Bulutli xizmatlar va ma'lumotlarni maxsus yechimlar bilan himoya qiluvchi MDR (Managed Detection and Response) bulut xavfsizligi tizimi provayderlar tomonidan bulutli texnologiyalar xavfsizligini ta'minlashda qo'llanilmoqda²⁶. Barcha elektron tijorat korxonalari xavfsizlik tizimlarini yaxshilash va tahdidlarni aniqlash uchun AI va ML dan foydalanishga o'tmoqdalar. Ushbu tendensiyalar biznes va iste'molchilarni kiber tahdidlardan himoya qilish uchun muhim bo'lgan elektron tijorat xavfsizligini yaxshilash bo'yicha davom etayotgan harakatni aks ettiradi²⁷. Ushbu tendensiyalarni tushunish va qo'llash korxonalarga potentsial tahdidlardan bir qadam oldinda turishga va onlayn operatsiyalarini xavfsiz saqlashga yordam beradi.



1-rasm: Elektron tijorat tizimi kiberxavfsizligining tashkiliy tuzilmasi²⁸

Elektron tijoratni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir jihat, bu logistika tizimidir. Global darajadagi elektron tijoratda logistika va ta'minot zanjiri tizimlarining ishlashi bir nechta asosiy parametrlar asosida baholanadi. Eng muhim ko'rsatkich - bu kompaniyalarning tovarlarni tez va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash qobiliyatidir. Samarali logistika tizimlari buyurtmalarni tanlash va jo'natishda xatolarni minimallashtirishi kerak, chunki xatolar tufayli tovarlar yetkazilishi kechiquchi yoki shikastlangan holda yetib borishi, ba'zida umuman yetib bormasligi mumkin. Mijozlar o'z buyurtmalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini kutishadi, bu esa kompaniyalardan tegishli texnologiyani tatbiq etishni talab qiladi. Talab va bozor sharoitlarining o'zgarishiga tezda moslashish qobiliyati samarali logistika tizimining muhim xususiyatidir. Logistika operatsiyalarini yaxshilash uchun sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ushbu ko'rsatkichlar logistika va ta'minot zanjiri tizimlarini mijozlar ehtiyojlarini qanchalik qondira olishini va tez o'zgaruvchan elektron tijorat bozorida biznesni raqobatbardoshligini baholashga yordam beradi. Standartlar va innovatsion yechimlarni joriy etish global logistika operatsiyalarida samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda, elektron tijoratda logistika va zaxiralarni boshqarishga bog'liq bir nechta asosiy muammolar mavjud:

- **tovar ayirboshlashning pastligi:** bu ortiqcha zaxirani paydo bo'lishiga va natijada kapitalning muzlab qolishiga olib kelishi mumkin;

24 Secure Access Service Edge (SASE) - xavfsizlik va tarmoqqa kirish funksiyalarini birlashtirgan tarmoq xavfsizligi uchun tushuncha va arxitektura.

25 <https://bing.com>

26 <https://itigic.com/ru/cybersecurity-trends-in-2020s-and-beyond/>

27 <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/kiberbezopasnost-2021-2022-trendy-i-prognoz>

28 Muallif ishlanmasi




- **mahsulot taqchilligi:** eng ko'p talab qilinadigan mahsulotlarning zarur vaqtda yo'qligi sotuv hajmini tushushiga va mijozlarning noroziligiga olib keladi;
- **mahsulot sifati bilan bog'liq muammolar:** Mahsulotni dastlabki tekshirish imkoniyati bo'lmagan onlayn-do'konlarda, tovarni qaytarib olish va mijozlarning noroziligiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, elektron tijoratda logistikani va zaxiralarni boshqarish borasida bir qator yangi imkoniyatlar ham paydo bo'lmoqda, masalan:

- **zaxirani boshqarishni avtomatlashtirish:** zaxirani aniqroq prognoz qilish va boshqarish uchun avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda;
- **logistika jarayonlarini optimallashtirish:** yetkazib berishni tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda;
- **ma'lumotlar sifatini oshirish:** xarid qilish va zaxirani boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun aniq va tegishli ma'lumotlardan foydalanish maqsadida avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari joriy qilish kengayib boryapti;
- **logistika tarmog'ining moslashuvchanligi:** talab o'zgarishiga tezda javob bera oladigan moslashuvchan logistika tarmog'larini yaratish ommalashib bormoqda.


Ushbu yangiliklar elektron tijorat kompaniyalariga o'z operatsiyalari samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va mijozlar ehtiyojini to'laroq qondirishga yordam beradi. Innovatsion yechimlar va jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish o'zgaruvchan raqamli dunyoda raqobatbardosh bo'lishning kalitidir.



2-rasm: Elektron tijoratning logistika tizimi²⁹

Elektron tijorat global bozorlarni o'zgartirishning muhim omiliga aylanib, ularning tuzilishi va dinamikasiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn xarid qilish hamda sotish imkoniyati nafaqat tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshiladi, balki iste'molchilarning xatti-harakatlarini ham o'zgartirdi. Elektron tijorat kompaniyalarga geografik to'siqlarni minimallashtirgan holda global miqyosda ishlash imkoniyatini taqdim etgani uchun global bozorlar yanada raqobatbardosh bo'ldi. Bundan tashqari, bozorlar va platformalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo'lishi iste'molchilar hamda sotuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirdi. Elektron tijoratda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish kabi yangi texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarga o'z faoliyatini optimallashtirish va har bir mijozga shaxsiy yondashuvni taklif qilish imkonini beradi. Elektron tijorat sotuvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi, natijada narxlar arzonlashadi va yaxshi xizmat ko'rsatiladi. Elektron tijoratning o'sishi kompaniyalardan mijozlarning yetkazib berish tezligi va sifati bo'yicha talablarini qondirish uchun samarali logistika va yetkazib berish tizimlarini yaratishni talab qiladi. Barqarorlik va ekologik tozalikka qiziqish ortib borayotgani tovarlarni qadoqlash hamda yetkazib berish sohasida "yashil" yechimlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Elektron tijorat global bozorlarni o'zgartirishda, yangi biznes imkoniyatlarini taqdim etishda va iste'molchilar uchun xarid qilish tajribasini yaxshilashda davom etmoqda. U bozor iqtisodiyoti kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalarning muhim drayveri bo'lib hisoblanadi.

Savdo hajmi, mlrd AQSh dollari



3-rasm: 2022-yilda global elektron tijorat bozoridagi eng katta kompaniyalarning hajmi, mlrd. AQSh dollarida³⁰

Elektron tijoratda global raqobat kuchayib bormoqda va xalqaro savdo bu jarayonning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Amazon, Alibaba va eBay kabi yirik global kompaniyalar bu bozorning asosiy o'yinchilar bo'lib, ular tendensiyalarni va o'yin qoidalarini belgilashga urinishmoqdalar. Ushbu kompaniyalar yangi bozorlarni kengaytirish va xalqaro iste'molchilarni jalb qilish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga intilmoqda. Ularda mavjud bo'lgan ilg'or texnologiyalar va logistika yechimlari, jahon savdosidagi to'siqlarni bartaraf etib, butun dunyo bo'ylab mijozlarga turli tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beryapti.

Hindistondagi Flipkart, Lotin Amerikasidagi MercadoLibre yoki yurtimizdagi Uzun kabi mintaqaviy platformalarning o'sishi ham mavjud bo'lib, ular o'z bozorlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda global gigantlar bilan faol raqobatlashmoqda. Umuman olganda, elektron tijorat dunyoni raqobatdagi geografik chegaralar bilan cheklanmagan yagona raqamli bozorga aylantirmoqda va kompaniyalar xalqaro savdodagi o'zgarishlarga faol moslashib, elektron biznes munosabatlarining kelajagini shakllantirmoqda.

Elektron tijoratni rivojlanishiga katta ta'sir etuvchi yana bir muhim jihat bu – qonunchilik va bojxona tartibini xalqaro kelishuvlarga integratsiya qilishdir. Butun dunyoda elektron tijorat sohasidagi qonunchilik bazasi hamda tartibga solish turlicha va unda doimiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ko'pgina mamlakatlar elektron tijoratning iste'molchilarni himoya qilish, ma'lumotlar xavfsizligi, elektron imzo va onlayn operatsiyalarni soliqqa tortish kabi jihatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarni ishlab chiqib bo'lishdi. Yevropa Ittifoqida fuqarolarga raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarini nazorat qilish imkonini beruvchi "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi reglament (GDPR) kuchga kirdi. Qo'shma Shtatlar bolalarning onlayn maxfiyligini himoya qilish uchun COPPA qonunini qabul qildi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Xitoy, elektron tijoratni, jumladan, sun'iy intellekt va raqamli valyutani tartibga solish bo'yicha qonunlarni ishlab chiqmoqda. O'zbekistonda ham "Elektron tijorat to'g'risida" 29.09.2022-yildagi O'RQ-792-sonli qonun qabul qilindi³¹. U 2022-yil 31-dekabrda kuchga kirdi va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, elektron tijorat subyektlarini belgilash, shartnomalar tuzish tartibi, hisob-kitoblar va tovarlarni yetkazib berish xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda elektron tijorat sohasidagi bojxona huquqiy bazasi va tartibga solish xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilikka muvofiq yuritilmoqda. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOI) doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va bojxona organlari hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasida elektron hujjat aylanishini birlashtirishga qaratilgan bojxona tizimini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda³². Umuman olganda, global tendensiya elektron tijorat uchun yanada shaffof va xavfsiz muhit yaratish istagini o'z ichiga oladi, ammo yondashuvlar va qoidalardagi farqlar turli yurisdiksiyalarda faoliyat yurituvchi global kompaniyalar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Elektron tijorat O'zbekistonda jamiyatning ijtimoiy-madaniy jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu savdo va iste'molning an'anaviy shakllarini o'zgartirishga yordam beradi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa

30 Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

31 <https://lex.uz/ru/docs/6213428>

32 <https://eec.eaeunion.org/news/speech/strategiya2025-perspektivy-razvitiya-tamozhennogo-regulirovaniya-v-eaes>



qo'shadi va yangi ish o'rinarini yaratadi. Elektron tijoratning rivojlanishi bilan iste'molchilar tovar va xizmatlarni tanlashda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lib, bu iste'molchilarning odatlari va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa, chekka hududlar aholisi uchun mahsulotlar assortimentini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, elektron tijorat aholining huquqiy va iqtisodiy savodxonligini oshirishga ko'maklashadi, chunki elektron tijoratdan foydalanish uchun ma'lum bir turdagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Bu, shuningdek, noyob mahalliy tovarlar va xizmatlarni jahon bozoriga tarqatish va shu bilan milliy madaniyatni saqlagan holda uni dunyoga targ'ib qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda elektron tijorat odamlarning turmush tarzi va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Elektron tijorat O'zbekiston aholisiga, ayniqsa, chekka qishloq joylarda ilgari mavjud bo'lmagan keng turdagi tovar va xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Xaridorlar ham kundan-kunga, mahsulotlarni solishtirish, sharhlarni o'qish va oddiy do'konlarga tashrif buyurmasdan onlayn xarid qilish imkoniyatiga egaligi sababli, bilimdon va talabchan bo'lib bormoqda. Elektron tijoratdan foydalanish ma'lum raqamli savodxonlikni talab qiladi, bu esa aholi o'rtasida tegishli ko'nikmalarni o'rganish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Elektron tijorat yangi korxonalarning paydo bo'lishiga yordam beradi va raqobatni kuchaytiradi, bu esa tovarlar va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga hamda narxlarning pasayishiga olib keladi. Onlayn xarid qilish platformalari ham foydalanuvchilar fikr va tavsiyalar almashadigan ijtimoiy muloqot joylariga aylanmoqda. An'anaviy do'konlar va bozorlar mijozlar tajribasini yaxshilash uchun onlayn savdo kanallari va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali yangi voqelikka moslashmoqda. O'zbekistonda elektron tijorat ta'sirida bo'lgan odamlarning turmush tarzi va xulq-atvoridagi bunday o'zgarishlar jahon tendensiyalarini aks ettirib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda, butun dunyoda iqlim o'zgarishlari haqida chuqur o'ylantiradigan muammolar mavjud. Shu sababli, elektron tijoratni atrof-muhitga ta'sirini hisobga olish dalzarb masaladir. O'zbekistonda elektron tijoratning atrof-muhitga ta'sirini bir nechta jihatlar bilan ko'rib chiqish mumkin. Xususan:

- **resurs iste'moli:** elektron tijoratning o'sishi elektron qurilmalardan foydalanish va energiya iste'molini oshirishga olib keladi, bu esa mamlakatning energiya resurslariga qo'shimcha bosim o'tkazishi mumkin;
- **qadoqlash va jo'natish:** onlayn xaridlar ko'pincha maxsus qadoqlash va jo'natishni talab qiladi, natijada chiqindi va avtomobil chiqindilari ko'payadi. Boshqa tomondan, elektron tijorat zaxirani samaraliroq boshqarish va an'anaviy do'konlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish orqali ushbu turdagi chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi;
- **raqamlashtirish:** raqamlashtirishga o'tish qog'oz hujjatlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi va ularni ishlab chiqarish hamda utilizatsiya qilishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishi mumkin;
- **innovatsiya va barqarorlik:** elektron tijoratning yuksalishi innovatsiyalarni, jumladan, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barqaror qadoqlash materiallarini ishlab chiqish va logistika tizimini takomillashtirishga motivatsiya beradi.

Umuman olganda, elektron tijorat atrof-muhitga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda iqtisodiy o'sish hamda ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash maqsadida elektron tijorat sektorida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmog'da. Ma'lumotlar markazlari va serverlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash energiya sarfini hamda elektron tijoratning ekologik ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Plastmassa va boshqa zararli materiallardan foydalanishni kamaytiradigan qadoqlash amaliyotini joriy etish, chiqindilar va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga yordam beradi. Samarali yetkazib berish va logistika tizimlarini ishlab chiqish, yuklarni tashish bilan bog'liq uglerod chiqindilarini kamaytirishga va tarmoqni barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Iste'molchilarni barqarorlik va ekologik toza amaliyotlarga o'rgatish dasturlarini amalga oshirish atrof-muhit uchun zararsiz bo'lgan tovarlar va xizmatlarga talabni oshirishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar elektron tijoratni rivojlantirishga barqaror va mas'uliyatli yondashuvni yaratishga, atrof-muhitni hurmat qilish bilan iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlashga qaratilgan elektron tijorat tizimini yaratishga qaratilgandir.

Kelajakda global miqyosda elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- **bozor maydonlarini kengaytirish:** muayyan tarmoqlar yoki bozor segmentlariga xizmat ko'rsatadigan ixtisoslashgan onlayn platformalar sonini ko'paytirish orqali bozor maydonlarini kengaytirish imkoniyati mavjud;
- **zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi:** foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun VR texnologiyalari, video marketing, sun'iy intellekt va mashinani o'rganishni



qo'llash³³;

- **raqamlashtirish va avtomatlashtirish:** samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalar orqali logistika jarayonlari hamda zaxiralarni boshqarishni takomillashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda;
- **mobil tijorat (m-commerce):** xarid qilish uchun smartfonlar va mobil ilovalardan foydalanishning ko'payishi, bu interfeyslar va to'lov tizimlarini mobil qurilmalarga moslashtirishni talab qiladi³⁴.

O'zbekistonda ham elektron tijorat faol rivojlanmoqda va biz kelajakda quyidagilar amalga oshirishini kutishimiz mumkin:

- **internet va smartfonlarning ijtimoiy hayotimizga kirib borishining ortishi:** Internet va mobil qurilmalardan foydalanuvchilar sonining o'sishi onlayn xarid qiluvchilar auditoriyasini kengaytirishga yordam beradi;
- **logistikani rivojlanishi:** bugungi kunda, yurtimizda Yandex va Express24 kabi yetkazib berish xizmatlarining kirib kelishi logistika infratuzilmasini takomillashtirish va tovarlarni mamlakat ichida yetkazib berish muddatlarini qisqartirishga imkon yaratadi.
- **mahalliy onlayn platformalarning o'sishi:** O'zbekiston bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan mahalliy onlayn-do'konlar hamda bozorlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi kundan-kunga oshib bormoqda³⁵.

Elektron tijoratni rivojlantirishning ushbu yo'nalishlari foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga, tovar va xizmatlarning assortimentini oshirishga, O'zbekistonda va butun dunyoda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Butun dunyoda hamda O'zbekistonda innovatsiyalarning tez kirib kelishi, yuqori tezlikdagi internet aloqalarining joriy etilishi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi elektron tijoratning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratada. Moliyaviy texnologiyalar, (fintech) sohasidagi innovatsiyalar, to'lov tizimlarini takomillashtirish, korxonalarni moliyalashtirishning yangi usullarini taqdim etish va elektron operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun sun'iy intellektidan foydalanish elektron tijorat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Barqaror elektron tijorat yo'lidagi innovatsiyalar ekologik toza qadoqlash materiallarini ishlab chiqish, chiqindilarni kamaytirish uchun logistikani optimallashtirish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, elektron tijorat startaplarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish yangi g'oyalar va texnologik yechimlarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://news.myseldon.com/ru/news/index/242627587>
2. <https://vc.ru/trade/620609-osnovnye-tendencii-razvitiya-elektronnoy-kommercii-v-rossii-i-mire-v-2023-godu-top-15-trendov>
3. <https://eec.eaeunion.org/news/speech/strategiya2025-perspektivy-razvitiya-tamozhennogo-regulirovaniya-v-eaes/>
4. <https://e-pepper.ru/news/globalnyy-rynok-elektronnoy-kommertsii-8-trendov-v-2023-godu.html>
5. <https://itigic.com/ru/cybersecurity-trends-in-2020s-and-beyond/>
6. <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/kiberbezopasnost-2021-2022-trendy-i-prognozy/>
7. <https://experience.dropbox.com/ru-ru/resources/protecting-personal-info-online>
8. <https://media.foxford.ru/articles/kak-zashchitit-lichnye-dannye-v-seti>
9. <https://www.eset.com/ua-ru/support/information/entsiklopediya-ugroz/zashchita-personalnykh-dannykh/>
10. <https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire>
11. <https://marketsplash.com/ru/statistika-elielectronnoi-kommertsii/>
12. <https://www.actualidadecommerce.com>
13. <https://www.cryptopolitan.com/ru/>
14. <https://adindex.ru/adindex-market/7/e-commerce/153781.phtml>
15. <https://lex.uz/ru/docs/6213428>
16. https://www.norma.uz/nashi_obzori/e-commerce_cho_eto_takoe_i_kak_tuda_popast
17. <https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire>
18. <https://ru.wikipedia.org>
19. U.Sharifxodjayev, Z.Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv
20. qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.-271 b
21. Абдухалилова Л.Т. Интернет маркетинг. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. 265 б.
22. Ergashxodjaeva Sh. J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik.–T.: Iqtisodiyot, 2018.-315 b.

33 <https://vc.ru/trade/620609-osnovnye-tendencii-razvitiya-elektronnoy-kommercii-v-rossii-i-mire-v-2023-godu-top-15-trendov>

34 <https://news.myseldon.com/ru/news/index/242627587>

35 <https://www.spot.uz/ru/2018/06/25/e-commerce/>



23. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B.
24. Marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019.-418 b.
25. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing an
26. introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.